

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMONOVA MADINABONU QODIRJON QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “QIYOFA” KONSEPTI  
VERBALIZATORLARINING LINGVOKOGNITIV VA  
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**UDK: 811.111'366.552**  
**811.512.133'366.552**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Usmonova Madinabonu Qodirjon qizi**

Ingliz va o'zbek tillarida "qiyofa" konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari..... 3

**Usmonova Madinabonu Qodirjon qizi**

Linguocognitive and linguocultural features of the verbalizers of the concept "appearance" in English and Uzbek ..... 25

**Усмонова Мадинабону Кодиржон кизи**

Когнитивные и лингвокультурологические особенности вербализаторов концепта «внешность» в английском и узбекском языках..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMONOVA MADINABONU QODIRJON QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “QIYOFA” KONSEPTI  
VERBALIZATORLARINING LINGVOKOGNITIV VA  
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2305 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adchti.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shokirov Sherali Ibrohimovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gulyamova Shaxnoza Kaxramovna**

filologiya fanlari doktori, (DSc) professor

**Mardiev To'lqinbek Kulliboyevich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy, Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**A.Dj.Atboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**M.A.Abduvaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, matn tilshunosligi kabi sohalar doirasida keng qamrovli tadqiqotlarning olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, bunda tilning struktur-funksional qatlamlarini chuqur o'rganishga oid nazariy paradigmalar vujudga kelib, dunyo tillarini qiyosiy, tipologik, chog'ishtirma o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Ingliz va o'zbek tillarida "qiyofa" konsept ma'nosining ifodalanishi, ularning muloqot muhitidagi mavqeini aniqlash, ushbu hodisalarning kognitiv mohiyatini belgilash, funksional imkoniyatlarini ochib berish, konseptual tasnifini yaratish muhim muammolardan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida kognitiv va lingvokulturologik yo'nalishda ingliz va o'zbek tillarida "qiyofa" konseptining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish, "qiyofa" konseptini ifoda etuvchi turli shakl, shuningdek, chog'ishtirma tilshunoslik, lingvistik maydon nazariyasi kabi yo'nalishlardagi mavjud muammoli masalalarga bir qadar oydinlik kiritish va semantikaga ega leksik (so'zlar, frazeologik birliklar, maqol va matallar) birliklarning maydoniy jihatlari, ular o'rtasidagi sistem munosabatlar, maydonni tashkillovchi birliklarning tutgan o'rni, ma'nosi va kommunikativ vazifalari kabilarni tadqiq etish zaruratining mavjudligi, hamda mavzu chog'ishtirma planda alohida o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ma'naviy yuksalishning asosida turli tillarning qiyosiy tadqiqini ilmiy jihatdan mustahkamlash, noqardosh tillarning o'xshash va noo'xshash farqlarini, zamon talablariga xos xususiyatini ochib berish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor vazifalaridandir. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida chet tillarini o'rganish zamonaviy inson hayotining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Xorijiy tilni bilish bugungi kunda kasbiy kompetensiya shartlaridan biridir. "Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozimligi, har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart"<sup>1</sup>. Bu esa xorijiy tillarni o'rgatish tizimini rivojlantirish va ularning ma'naviy dunyosini boyitishga yo'naltirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarori, 2024-yil 27-iyundagi "Yoshlarni xorijiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 25.01.2020 y.

tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–239-son qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Dissertatsiya respublikamizning fan va texnologiyalar rivojlanishi “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilish darajasi.** Zamonaviy tilshunoslikda turli konseptosferalarni tizimli ravishda talqin qilish muammosi ancha qiziqarli tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, *go‘zallik, sevgi, hayot, o‘lim, mehnat/ish, ayol, erkak, ona, so‘z* singari konseptlarni tadqiq qilishga, shuningdek, muayyan badiiy asar yoki biror tilning paremiologik qatlamlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar bunga misol bo‘la oladi. Masalan, Ye.V.Babayeva, Ye.N. Belaya, N.M. Janpeisova, I.L. Gureyeva, N.M. Kravsova, T.V. Lukina, A.S. Alyoshin, M.R. Galiyeva, Ye.A. Menzairova, G.Ergasheva, G‘.Ismoilov<sup>2</sup> kabi tilshunoslarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin.

“Qiyofa” konseptiga oid intellektual, jismoniy, psixologik va ayrim boshqa xususiyatlari verbal voqelanishining semantik va kognitiv jihatlari N.M. Kravsov, M.A. Yeremina, A.A. Pintova, I.V. Kirillova, O.B. Klevsova, V.B. Shirshikov, Ko Chun In, V.V. Katermina, Ye.V. Komarov, V.A. Kameneva, T.V. Lukina, Ye.A. Menzairova, L.A. Sayfi, G.N. Smagulova, Ye.A. Chistyuxina kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Бабаева Е.В. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой аксиологической картины мира: Дисс. ... док. филол. наук. – Волгоград: 2004. – 438 с.; Беляя Е.Н. Теоретические основы исследования языковых и речевых репрезентаций базовых эмоций человека (на материале русского и французского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск: 2006. – 210 с.; Жанпеисова Н.М. Когнитивно-лингвокультурологический анализ картины мира казахско-русских билингов: Учебное пособие по спецкурсу. – Актобе: Принта, 2006. – 232 с.; Гуреева И.Л. Диахронические сдвиги в семантике и смысловых связях английских прилагательных, выражающих понятие “красивый”/ “некрасивый” (на материале истории семантического поля прилагательных с XII по XX вв.): Автореф. дисс...канд.фил.наук. – Киров: 2007. – 23 с.; Кравсова Н.М. Концепт “человек телесный”: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень: 2008. – 30 с.; Лукина Т.В. Семантико-синтаксические и коммуникативно-прагматические особенности выражения физического и эмоционального состояний человека в современном немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: 2008. – 28 с.; Алёшин А.С. Устойчивые сравнения шведского языка-ка, характеризующие человека (лингвокультурологический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Санкт-Петербург: 2011. – 24 с.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент: 2010. – 28 с.; Мензайрова Е.А. Актуализация концептов “Любовь” и “Женщина” в письменном дискурсе: дисс... канд. наук. – Ижевск: 2010. – 187 с.; Эргашева Г. Концепт “женщина” с позиции гендерного подхода (на примере фразеологии английского и узбекского языков) //TürkologiY. –2010.№1-2. – С.72-78.; Kasimova Z. A. Olam va odam konsepsiyasi milliy va jahon adabiyoti an‘analari prizmasida (A.Fitrat, A.Qodiriy, A.ChO‘lpon ijodi misolida): Filol.fanlar nomz.diss. avtoreferati – Toshkent, O‘zMU. 2009. – 24 b.; Abdinazimov SH.N. “Hayal” sezi haqqinda // Berdaq nomidagi QDU Axborotnomasi. Nukus: 2015, №4. – B. 104-107.; Орынбетова Н.Б. Проблема характера героев в каракалпакском романе 80х годов: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. Нукус: 2001. – 32 с.

<sup>3</sup> Кошарная С.А. Лингвокультурологическая реконструкция мифологического комплекса “человек – природа” в русской языковой картине мира: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук: – Белгород: 2002. – 46 с.; Ширшиков В.Б. Лексикографическая и текстовая репрезентация концептов ограниченной ментальной способности человека в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов: 2005. – 23 с.;

Bundan tashqari, “qiyofa” konseptining ayrim jihatlari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan Z.A.Kasimova, Sh.N.Abdinazimov, N.B.Orinbetova<sup>4</sup> lar tomonidan yoritilgan.

Ushbu ishimizda “til – tafakkur – madaniyat”<sup>5</sup> uchligi doirasida konseptlar majmuasi o‘rnini egallaydigan “qiyofa” konseptini lisoniy voqelantiruvchi faoliyatga xos hodisalar, birliklarning mohiyati va tabiati o‘rganiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqigi.** Mazkur tadqiqot Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlarining “Kognitiv tilshunoslikda konsept muammolarini o‘rganish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida “qiyofa” konseptining mazmun-mohiyati, konseptual tuzilishi, lingvokognitiv belgilarini aniqlash hamda uning konseptosferadagi o‘rnini belgilash;

ingliz va o‘zbek tillarining nominativ maydonida “qiyofa” konseptini verbalizatsiya qiluvchi leksik, frazeologik va paremiologik birliklarni aniqlash, tasniflash, tizimlashtirish hamda ularning definitson, etimologik va leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining kontekstual, funksional-pragmatik, valentlik, sinonimik va semantik xususiyatlarini ochib berish hamda ular asosida konseptning lingvokognitiv farqlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek xalqlarining olamning milliy manzarasida “qiyofa” konseptining lingvokulturologik voqelanishini maqol, matal, ibora va boshqa madaniy-belgili birliklar asosida qiyosiy yoritish.

**Tadqiqotning obyektini** ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlari tashkil etadi.

---

Катермина В.В. Национально-культурной специфики образа человека: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук: – Волгоград: 2005. – 44 с.; Смагулова Г.Н. Концепт “женщина” в казахских фразеологизмах // Вестник Новгородского государственного университета: – Новгород, 2008. №49. – С 84-87.; Кравцова Н.М. Концепт “человек телесный”: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень: 2008. – 30 с.; Пинтова А.А. Концепты OLD/YOUNG и СТАРЫЙ/МОЛОДОЙ в английской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: 2009. – 18 с.; Ефремов В.А. Динамика русской языковой картины мира: Вербализация концептуального пространства “мужчина – женщина”: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Санкт-Петербург: 2010. – 40 с.; Кириллова И.В. Лингвокультурологическая специфика когнитивной оппозиции *ум – глупост* в русской языковой картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: Нижний Новгород, 2012. – 22 с.

<sup>4</sup> Орынбетова Н.Б. Проблема характера героев в каракалпакском романе 80х годов: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. Нукус: 2001. – 32 с.; Qasimova Z. A. Olam va odam konsepsiyasi milliy va jahon adabiyoti an‘analari prizmasida (A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho‘lpon ijodi misolida): Filol.fanlar nomz.diss. avtoreferati – Toshkent, O‘zMU. 2009. – 24 b.; Abdinazimov Sh.N. «Hayal» so‘zi haqqida // Berdaq nomidagi QDU Axborotnomasi. Nukus: 2015, №4. – B. 104-107.

<sup>5</sup> Safarov Sh. Tilshunoslikning navbatdagi vazifalari// Xorijiy filologiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2016. – №3. – B. 101.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konseptual maydonini tashkil etuvchi lisoniy birliklarning leksik-semantik, struktur, funksional, lingvomadaniy, stilistik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodlari.** Mavzuni yoritishda kognitiv modellashtirish, freym, komponent tahlil, distributiv, statistik, funksional, qiyosiy-chog‘ishtirma va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida “qiyofa” konseptining lingvokognitiv mohiyati, konseptual tuzilishi va konseptosferadagi o‘rni qiyosiy asosda aniqlanib, uning madaniyatlararo umumiy va differensial belgilari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konseptini verbalizatsiya qiluvchi leksik, frazeologik va paremiologik birliklar ajratilib, ularning nominativ maydoni tizimlashtirilgan hamda universal va milliy-madaniy komponentlari belgilangan;

“qiyofa” konsepti verbalizatorlarining definitsion, etimologik, leksik-semantik, kontekstual, pragmatik va valentlik xususiyatlari va ularning funksional-semantik farqlari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konseptining lingvokognitiv modeli ishlab chiqilib, uning sinonimik qator, semantik munosabatlar va paremiyalarda ifodalanishi orqali olamning milliy manzarasida voqelanish mexanizmi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Turli tizimli tillarda “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining mohiyatini ochib beruvchi yadroviy leksemalarning sinonimlar tarkibi aniqlangan;

“qiyofa” semantik maydonining yadro va pereferiyasini tashkil etuvchi leksemalarning o‘rni va ularga xos semantik, funksional, pragmatik xususiyatlari ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilayotgan tadqiq usullari tatbiqi asosida mavzu bo‘yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilgan;

ingliz va o‘zbek tillari materiallaridan saralab olingan misollarni tahlil qilish orqali “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining milliy lisoniy manzarasida voqelanishining o‘ziga xos xususiyatlariga doir fikrlar umumlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari kognitiv tilshunosligi, lingvomadaniyatshunosligi, leksikologiyasi, va leksikografiyasi bo‘yicha nazariy manba yaratishda, darslik hamda qo‘llanmalarni takomillashtirishda, maxsus kurslar uchun qo‘shimcha materiallar berishda, ingliz va o‘zbek tillarining zamonaviy akademik va o‘quv lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijasida olingan nazariy xulosalar turli tillarda “qiyofa” konsepti verbalizatorlarini voqelantiruvchi leksemalarni tadqiq qilishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning natijalaridan ingliz va o‘zbek tillarida zamonaviy tilshunoslik muammolari bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qishda hamda leksikologiya, stilistika, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik aspektida maxsus kurslar tashkil etishda, ingliz tili amaliy kurslarida va leksikografik ishlarda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tillarida “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida nominativ maydonda “qiyofa” konseptini izohlovchi birliklarni universal va milliy o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan dissertatsiyasi tadqiqoti natijalari va materiallaridan 2022-2023 yillarda bajarilgan 1-203-4 raqamli O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma’rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho‘basi tomonidan o‘zbek xalqining boy milliy til an‘analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan “Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish” nomli fundamental loyiha doirasida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2025-yil 4-fevral 02-14-06-869- son ma’lumotnomasi). Natijada, “qiyofa” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi lisoniy olam manzarasida milliy voqelanishining o‘ziga xos xususiyatlari qiyoslab o‘rganildi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlari chet tillarni o‘qitishning mazmuniga Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklariga integratsion tarzda singdirish jihatlarini aniqlash amaliyotini tashkillovchi samarali usullar majmui loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qildi;

ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘rganish jarayonida “qiyofa” konseptini ifodalovchi til birliklaridan foydalanishga doir xulosalardan Xalq ta’limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 156-son buyrug‘i asosida 2023-2024 yillarda bajarilishi nazarda tutilgan AI-201704-sonli “Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihasida foydalanilgan (Xalq ta’limi vazirining 2025-yil 3- fevraldagi 1406-310207-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “qiyofa” konsepti verbalizatorlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi lisoniy olam manzarasida milliy voqelanishining o‘ziga xos xususiyatlari qiyoslab o‘rganildi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlari chet tillarni o‘qitishning mazmuniga, Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklariga integratsion tarzda singdirish jihatlarini aniqlash amaliyotini tashkillovchi samarali usullar majmui loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qildi;

“qiyofa” konsepti verbalizatorlarining kundalik muloqotdagi o‘rni va ahamiyati, ayniqsa, uning paradigmatic va sintagmatic vositalar orqali voqelantirilishiga oid ilmiy ma’lumotlardan “Assalom, O‘zbekiston!”, “Ta’lim va taraqqiyot” kabi turkum ko‘rsatuvlar va eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-dekabrda 06-28/825-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar mazmunli lisoniy faktlar bilan boyitildi va tomoshabinlar “qiyofa” konseptini muloqotni to‘laqonli kechishidagi ahamiyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lgan;

ingliz va o‘zbek tillarida nominativ maydonida “qiyofa” konsepti verbalizatorlarini izohlovchi birikmalarni universal va milliy o‘ziga xos komponentlariga oid ilmiy ma’lumotlaridan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi

Badiiy kengashi, yosh tarjimon to‘garagi va adabiy kechalarda talabalarning bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlashda foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy maqola; shulardan, 3 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari va 2 ta OAK xorijiy ilmiy asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 3tasi respublika va 4tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan. Mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kognitiv tilshunoslikda “konsept” terminini qo‘llanishining leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlangan. Birinchi faslda **“Tilshunoslikda “konsept” terminining kognitiv hodisa sifatidagi o‘rni”** yoritilgan.

Lingvomadaniyatshunoslikni bugungi kunda tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan, tilda o‘z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan xalqlar madaniyatini kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yangi yo‘nalish sifatida talqin qilish mumkin. N.M.Mahmudovning yozishicha, **“lingvokulturologiya tilni madaniyat hodisasi sifatida o‘rganadi. Bu dunyoni milliy til prizmasi orqali o‘ziga xos tarzda ko‘rish bo‘lib, bunda til alohida milliy mentallikning ifodachisi sifatida ishtirok etadi. Bugun lingvokulturologiya rus va boshqa xorijiy tilshunosliklarida alohida lingvistik yo‘nalish sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tavsiflash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan bu yo‘nalish o‘zbek tilshunosligida ko‘proq qiyosiy aspektidagi izlanishlarda endi-endi boshlanmoqda.”**<sup>6</sup>

Kognitiv tilshunoslik lisoniy tafakkur faoliyati va milliy mentalitetni muayyan shaxsga, ijtimoiy yoki etnik guruhlariga xos bo‘lgan hamda ongdagi kognitiv stereotiplar majmuasiga tegishli bo‘lgan, borliqni idrok qilish va tushunishning o‘ziga xos vositasi deb qaraydi.

---

<sup>6</sup> Mahmudov N. M. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. №5. – 51 b.

Olamning lisoniy manzarasini shakllantirish mexanizmi quyidagicha talqin qilinadi: fikrlash jarayonida borliq haqidagi axborotlar qayta ishlanadi. Ongda ma'lum darajada olam manzarasi shakllanadi va ular muayyan darajada inson xulq atvorini belgilaydi. Ammo olam manzarasini shakllantirishga nafaqat shaxsning individual bilimlari, balki uning e'tiqodi, shaxsiy fikri, baholovchi mezonlari ham ta'sir qiladi. Bunday faoliyat natijasida shakllangan olam manzarasi insonning hayotiy faoliyati jarayonida doimo to'ldirilib va yangilanib boradi.

V.I. Postovalova olam manzarasini o'rganishga doir tadqiqotida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Aftidan bu hodisa olam manzarasining barcha qirralarini o'z ichiga oladi: unda dastlab, inson-pozitsiyasi va uning qiziqishlarini ifodalovchi, izomorfizm xususiyatiga ega bo'lgan olam obrazini ko'ramiz. U o'z empirik korrelyatlariga ega va uning muhim jihatlarini aniqlashda shubha-gumonlarga yo'l qo'yilmaydi hamda inson faoliyatining doimo boshqarib turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi va insonning olamga munosabatini belgilab beradi. Shu tarzda, inson muloqotining kommunikativ makonida xulqiy va axloqiy stereotiplar shakllantiriladi."<sup>7</sup>

Yuqorida keltirilgan fikrlardan olamning lisoniy manzarasi olamning konseptual manzarasining verballashgan qismi, shuningdek, uning lisoniy shakllarda ifodalangan bilimlar yig'indisini hisobga oladigan chuqur va yuqori qatlamlaridir degan xulosaga kelish mumkin.

"Qiyofa" konseptining lisoniy manzarasidagi o'rniga doir hodisalar tahlili lingvomadaniy konseptning strukturasi uchta komponent mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni madaniy qadriyatga doir elementlar, faktual va obrazli elementlar. Konsept haqidagi ma'lumotlar, uning aniq faktlarga doir elementlari xotirada verbal shaklda saqlanadi va shu sabab u nutqda bevosita qayta aks etishi mumkin, obrazli element esa noverbaldir, uni faqat tasvirlab ifodalash mumkin.

Bobning ikkinchi faslida **"Dunyo tilshunosligida "qiyofa" konseptining talqini"** tadqiq etilgan. Qiyofa deganda odamning yuzi, uning qomati, kiyimi, tashqi ko'rinishining xarakterli belgilari majmui, murakkab shakllanish, xususiyatlar majmui<sup>8</sup>, "tafsilot"<sup>9</sup>, elementlar<sup>10</sup>, sensor aks ettirish uchun ochiq va insonning vizual idroki bilan ajralib turadigan semiotik tizimlar<sup>11</sup> tushuniladi. S.V.Popov ikki guruh belgilarini ajratib ko'rsatadi, ya'ni, insonga xos bo'lgan umumiy jismoniy, demografik, antropologik, anatomik, funksional va tegishli, qo'shimcha ravishda uni tavsiflovchi kiyim, poyabzal va boshqalar.<sup>12</sup> Boshqa tadqiqotchilar belgilarning uchta guruhini ajratib ko'rsatishadi. Birinchisi, insonning jismoniy jihatini tashkil etuvchi anatomik xususiyatlardan iborat<sup>13</sup> (shuningdek, umumiy jismoniy<sup>14</sup> tus deb

<sup>7</sup> Постовалова В.И. Язык как духовная реальность: учение об имени и молитве и православной традиции (истоки, направления, концептуальное развитие). – М.: Культурная революция, 2019. – 532 с

<sup>8</sup> Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком/А.А.Бодалев. – М.:Изд-во МГУ, 1982. – 200 с.

<sup>9</sup> Лукина М.М. Технология интервью: учеб.пособие для вузов / М.М. Лукина. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 191 с.

<sup>10</sup> Бугаев К.В. Использование данных о внешности человека в раскрытии и расследовании преступлений / К.В. Бугаев // Законодательство и практика. № 2. – Омск. Омск.акад. МВД России, 2005. – С. 66–69.

<sup>11</sup> Петрова Е.А. Знаки общения / Е.А. Петрова. – М.: Изд-во ГНОМ, 2001. – 256 с.

<sup>12</sup> Попов С.В. Визуальное наблюдение / 2002. – 320 с.

<sup>13</sup> Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком / – М.: Изд-во МГУ, 1982. – 139 с.

<sup>14</sup> Бугаев К.В. Использование данных о внешности человека в раскрытии и расследовании преступлений / К.В. Бугаев // Законодательство и практика. – № 2. – Омск: Изд-во Омск.акад. МВД России, 2005. – С. 66–69.

ataladi, inson tanasi tuzilishining xususiyatlari sifatida tushuniladi.<sup>15</sup> Ikkinchi guruh mimika, imo-ishoralar, xulq-atvor, turish, yurish va hokazolar bilan ifodalanadigan funksional belgilardan (yoki A.E.Laguna terminologiyasida dinamik belgilardan) iborat, ya'ni, kinesika, jumladan, noverbal imo-ishoralar. Uchinchi guruhga kiyim-kechak, taqinchoqlar, soch turmagi bilan ifodalanadigan ijtimoiy belgilar va tegishli aksessuarlar kiradi<sup>16</sup>. O.G.Podkovirin, o'z navbatida, qiyofa maydoniga barcha hissiy idrok etilgan daqiqalarni nazarda tutadi va "qatlamlar" ("kiyim" va "tana") tashkil etuvchi tana va moddiy elementlarni ajratib turadi.<sup>17</sup>

O.V.Korotun "tashqi shaxs" konseptiga "inson qiyofasiga obyektiv va subyektiv, pragmatik, estetik jihatdan bog'liq bo'lgan hamma narsa: jismoniy va jismoniy bo'lmagan organlar (tabiiy va sun'iy), odamni bezab turgan va uning tanasini qoplaydigan narsalar yoki boshqalar, tashqi ko'rinishning dinamik belgilarini (tana harakatlari, yuz ifodalari, turish, harakat, yurish), tashqi nutq belgilarini (ovoz, nutq), shuningdek, inson qiyofasini estetik, axloqiy, ijtimoiy, psixologik baholash uchun ishlatiladi."<sup>18</sup>

A.V.Demutskaya ta'kidlaganidek, "birinchi navbatda, odam boshqa odamni vizual qabul qiladi. Va hatto bunday dastlabki vizual baholash allaqachon bir kishiga boshqa odam haqida xulosa chiqarishga imkon beradi – u uni yoqtiradimi yoki yo'qmi, uning xarakteri va temperamentini talqin qilishga imkon beradi."<sup>19</sup>

S.Stepanovning fikricha, odamning qiyofasi "old tomon" va "so'zsiz til"dan iborat. Qiyofa komponentlari – "o'qiladigan" va talqin qilinadigan "noverbal signallar."<sup>20</sup>

Shunday qilib, vizual tarzda idrok etiladigan qiyofa so'zsiz til, inson, narsalar haqida ma'lumot beruvchi belgidir. Shuni ta'kidlash kerakki, yaxlit tasvir ham, uning alohida komponentlari ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu bobning uchinchi fasli **"Qiyofa" konsepti lingvomadaniyat-shunoslikda tushuncha sifatida** deb nomlangan.

Kognitiv tushunchalar "atrofdagi haqiqatni tuzish va qayta qurish uchun individual mazmunli aqliy shakllanishlar va madaniy tushunchalarga tegishli madaniyatning o'ziga xosligini belgilaydigan jamoaviy mazmunli aqliy shakllanishlardir". Binobarin, "lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar shaxsga nisbatan matnlarda farq qiladi: lingvokognitiv tushuncha – bu doimiy ravishda ong bilan madaniyat sari intilish bo'lsa, lingvokulturologik tushuncha

<sup>15</sup> Петрова Е.А. Знаки общения / Е.А. Петрова. – М.: Изд-во ГНОМ, 2001. – 256 с.

<sup>16</sup> Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком / А.А. Бодалев. – М.: Изд-во МГУ, 1982. – 200 с; Бугаев К.В. Использование данных о внешности человека в раскрытии и расследовании преступлений / К.В. Бугаев // Законодательство и практика. № 2. – Омск: Изд-во Омск.акад. МВД России, 2005. – С. 66–69; Лукина М.М. Технология интервью: учеб.пособие для вузов / М.М. Лукина. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 191 с; Петрова Е.А. Знаки общения / Е.А. Петрова. – М.: Изд-во ГНОМ и Д, 2001. – 256 с.

<sup>17</sup> Подковырин Ю.В. Внешность литературного героя как художественная ценность: дис. ... канд. филол. наук.: 10.01.08 / Подковырин Ю.В. – Кемерово, 2007. – 172 с.

<sup>18</sup> Коротун О.В. Образ-концепт "внешний человек" в русской языковой картине мира: дисс. ... канд. филол. наук.: 10.02.01 / Коротун Ольга Владимировна. – Омск: Ом.гос. ун-т, 2002. – 15 с

<sup>19</sup> Демуцкая А.В. Сопоставление языковых картин мира в русском и английском языках на примере моделирования внутренних свойств человека через внешность / А.В. Демуцкая // Логический анализ языка. Языки эстетики: Концептуальные поля прекрасного и безобразного. – М.: Индрик, 2004. – С. 162–168.

<sup>20</sup> Степанов С. Язык внешности / С. Степанов. – М.: ООО "Эксмо-Пресс", 2001. – 8 с.

madaniyatdan ong tomon odimlash” degan fikrni olg‘a surgan Karasik<sup>21</sup>. Demak, “qiyofa” konsepti til, ong va madaniyatni har tomonlama o‘rganishga qaratilgan bir qancha elementlardan tashkil topgan psixologik birlik sifatida ta’riflanadi, chunki konsept ongda mavjud bo‘lib, madaniyat bilan belgilanadi va til bilan obyektivlashtirilsa, lingvomadaniy yondashuv doirasida ko‘rib chiqiladi va uning asosida konsept tarkibida qiymat komponentiga ega bo‘lish g‘oyasi yotadi. Bu bizga dunyoning “qiyofa” konsepti tasvirining elementi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. “Qiyofa” konsepti o‘zining vizual idrok etilgan xususiyatlarining yig‘indisi sifatida, tarkibida qiymat komponentining mavjudligi tufayli lingvomadaniy maqomini oladi, uning yo‘qolishi bilan u o‘zining jismoniy mavjudligini saqlab qoladi, lekin madaniy maqomini yo‘qotadi. “Qiyofa” komponenti lingvomadaniy konseptni ajratib ko‘rsatishning asosiy mezonini hisoblanadi. “Konseptning markazi har doim qadriyatdir, chunki konsept madaniyatni o‘rganishga xizmat qiladi, madaniyat esa qadriyat tamoyiliga asoslanadi.”<sup>22</sup>

Qadriyatlar ham o‘z egalarining ehtiyojlarini qondirishga, ham ma’lum bir idealni yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. “Madaniyat – bu yo‘nalish bo‘lib, har doim qandaydir ya’ni, shaxs doirasidan tashqariga chiqadigan idealga, jamiyat idealiga yo‘naltirilgan”. B.Parigin ta’kidlaydiki, jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyatlar tizimida davlat ixtiyorida bo‘lgan keng qamrovli vositalar tizimi yordamida faqat kundalik ong darajasida ishlaydigan rasman ruxsat etilgan va singdiriladigan qadriyatlar bilan farqlash kerak.<sup>23</sup> Shularni inobatga olib, biz ma’lum bir madaniyatga amal qiladigan barcha bevosita yoki bilvosita, rasmiy yoki norasmiy ideallar, shuningdek ularni ifodalovchi lingvomadaniy konseptlar o‘rtasida tizimli aloqalar mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning “Ingliz va o‘zbek tillarida “Qiyofa” konsepti verbalizatorlarining paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida, tilshunoslikda “qiyofa” konsepti tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari xususida fikr va xulosalar berilgan.

M.V. Nikitin konseptning tuzilishi u ko‘rsatadigan obyekt turiga bog‘liqligini ta’kidlaydi va ontologik narsalar tushunchalari va belgilari konseptlariga ajratadi. Ushbu konseptlar “kognitiv va baholovchi ta’sirlar aurasiga singib ketadi”<sup>24</sup>. M.V.Nikitin konsept tuzilishidagi mumkin bo‘lgan komponentlar sifatida hissiy obrazni, mavhum tushunchani, implikativ salohiyatni va baholovchi-pragmatik ahamiyatni ajratib ko‘rsatadi. Majburiy xususiyatlar konseptning o‘zagini – uning intensiyasi, periferik xususiyatlar implikatsionalini tashkil qiladi.<sup>25</sup>

Z.D.Popova va I.A.Sternin konsept maydoni, yadro-periferik tuzilishi va undagi perseptiv va kognitiv tasvirlar bilan ifodalangan obrazli komponentni, axborot mazmunini, shu jumladan kalit so‘zning lug‘atdagi ta’rifini - konseptning

<sup>21</sup> Карасик В.И. Лингвокультурная концептология / В.И. Карасик, Н.А. Красавский, Г.Г. Слышкин. – Волгоград: Парадигма, 2009. – 34-139].

<sup>22</sup> Карасик В.И. Лингвокультурная концептология / В.И. Карасик, Н.А. Красавский, Г.Г. Слышкин. – Волгоград.: Парадигма, 2009. – 116 с.

<sup>23</sup> Парыгин Б.Д. Основы социально-психологической теории/ Б.Д. Парыгин. – М.Мысль, 1971. – 351 с.

<sup>24</sup> Никитин М.В. Развернутые тезисы о концептах // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. – № 1. – С. 60.

<sup>25</sup> Никитин М.В. Развернутые тезисы о концептах // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. – № 1. – С. 76

nomini va badiiy, ilmiy va publitsistik matnlardagi maqollar, aforizmlar, talqinlar yordamida tahlil qilinadigan talqin sohasi haqida gapiradilar.<sup>26</sup>

I.S.Shevchenko konsept tarkibiy qismlarining o‘zaro singishishini qayd etadi va nisbatan alohida komponentlar bilan tushunchalarni, binar tuzilish konseptlarini va sinkretik konseptlarni belgilaydi. Birinchi turdagi konseptlar tarkibida (hokimiyat, saylov) konseptual, obrazli va qiymat komponentlari aniq farqlanadi. Ikkinchi turdagi tushunchalar (gunoh/sin, yaxshi/good, kamtarlik/ modesty) ikki komponentning – konseptual va qiymatning ajralmasligi bilan tavsiflanadi, chunki qiymat tushunchalarning o‘zida mavjud bo‘lib, bu konseptlar nomlarida baholovchi semalar mavjudligidan dalolat beradi.

“Qiyofa” tushunchasi strukturasi sinkretizmi o‘rganilayotgan konsept nomi – *appearance* leksemasining komponentli tahlilidan dalolat beradi, buning natijasida qiyofa, baholash va persektiv obraz tushunchasiga mos keladigan semalar topilgan. Qiymat va majoziy komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘chma komponentni obyektivlashtiruvchi konseptual metaforalar bilan baholovchilikni aniqlashdan dalolat beradi. Demak, o‘rganilayotgan konseptning tarkibida konseptual, qiymat va obrazli komponentlar uzviy bog‘langan.

Qiyofaning eng xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, u odamga bevosita kuzatish uchun berilmaydi. Shunday qilib, “qiyofa”ni o‘rganish uni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini, tegishli bilimlarning mavjudligini va muayyan tafsilotlarga e‘tiborni jamlashni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan qiyofani talqin qilish, unga baho berish, unga shaxs hayotida alohida ahamiyat berish har doim o‘zgalarning pozitsiyasini, nuqtai nazarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, bir xil narsalar, obyektlar, hodisalar barcha odamlar tomonidan turlicha idrok qilinadi.

Bobning ikkinchi fasli “Ingliz tilida “*appearance-qiyofa*” konsepti verbalizatorlarining paradigmatic va sintagmatic tadqiqi” deb nomlangan. Ingliz tili izohli lug‘atlari bilan ishlash jarayonida o‘tkazilgan tahlillar “*appearance*” leksemasini polisemantik xususiyatga ega ekanligi va ular alohida olinganda ham, so‘z birikmalari va frazeologik birikmalar tarkibida kelganda ham turli ma’nolarni kasb etishlari mumkinligini ko‘rsatdi.

Shuni inobatga olgan holda lug‘atlarda ro‘yxatga olingan “*appearance*” va u bilan bog‘liq morfologik va sintaktik tuzilishga ega birliklarni ma’noviy nuqtai nazardan tahlil etishni lozim deb topdik. Ingliz tilidagi “*appearance*” leksemasiga lug‘atlarda berilgan ta’riflarga e‘tibor beramiz. Vebsterning “Ingliz tilining uchinchi yangi xalqaro lug‘ati” (Webster’s third new international dictionary of the English Language”, Kōnemann, 1993, P. 103)da ot so‘z turkumiga kiruvchi “*appearance*” so‘zi o‘rta asrlar ingliz tilida “*apperaunce*”, o‘rta asrlar fransuz tilida *aparance*, *apparence*, qadimgi lotin tilida “*apparentia*”, lotin tilida “*apparent-, apparens*” so‘zlariga qarindosh ekanligi, uning asl va yetakchi ma’nosi “*the act, action, or process of appearing*”. “*harakat, holat, jarayonlarni vujudga kelishi*”

“*Appearance*” so‘zining boshqa ma’nolarini lug‘atdagi ketma-ketlikda tarjima usuli orqali quyidagicha aniqladik:

---

<sup>26</sup> Попова З.Д. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 128.

1. a) birdan paydo bo‘lish (*the act or action of coming into view or being visible*): for example: *the sudden appearance of enemy troops; the unexpected appearance of smoke on the horizon*;

b) jamoatchilik oldida paydo bo‘lish (*the act or action of coming before the public or into public view*): for example: *his last appearance on the London stage; financially secure since the appearance of his last novel*;

s) vujudga kelish harakati yoki jarayoni (*the action or process of coming into existence*): for example: *within a few years after the appearance of the ..... canal boat*;<sup>27</sup>

d) vakolatli organ oldiga rasmiy ravishda kelish (*the act or action of coming formally before an authoritative body*): for example: *his appearance before the board*;

2. a) Qiyofa yoki shakl paydo bo‘lish (*the state or form in which one appears*); for example: *his whole appearance was markedly different from that of the guests usually to be seen*;<sup>28</sup>

b) 1) tashqi ko‘rinish holati (haqiqiy holatdan farqli o‘laroq) (*an outward state of appearing as opposed to an actual state*): for example: *traders, though hostile to the settlement, had to preserve an appearance of neutrality*;<sup>29</sup>

2) haqiqiy yoki xayoliy sharmandalikni yashirish yoki ijtimoiy tanazzulni oldini olish (*to conceal a real or fancied disgrace or to avoid a social lapse*): for example: *they spent their lives trying to keep up appearances and to make his salary do more than it could*;

c) tashqi ko‘rsatmalar, holatlar yoki voqealar (*outward indications, circumstances, or events*): for example: *to all he was guilty*;

d) 1) haqiqiy tabiatidan yoki haqiqiy mavjudligidan ajralib turadigan narsaning hissiy taassurotlari (*a sense impression of a thing as distinguished from its true nature or real existence*): for example: *the blue of distant hills is only an appearance*; 2) sezgi organlarining xarakteri yoki muayyan holatlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan yoki o‘zgartirilgan obyekt: for example: *the different of a penny viewed from different angles (har xil tomondan qaraladigan bir tiyinning farqi)*;

e) haqiqiydan fenomenal (*the phenomenal as opposed to the real*):

1) sensatsiya yoki taassurotda berilgan narsa, oqilona tekshiriladigan narsaga qarama-qarshi; 2) mutlaq haqiqat bilan qarama-qarshi bo‘lgan inson: for example: *That philosophic legerdemain which, with only experience for its datum, would condemn this experience to the status of appearance and disclose a reality more edifying*;<sup>30</sup>

3. a) ko‘rinadigan biror narsa, hodisa: b) birinchi ko‘rinish: for example: *a great observer of natural*;<sup>31</sup>

4. yig‘ilish yoki kompaniya: attendance; for example: *an innumerable appearance of gallants*.<sup>32</sup>

---

<sup>27</sup> Aldrington R. Death of Hero. – Moscow: Visshaya shkola, 1985. – 350 p.

<sup>28</sup> Cronin A. J. Crusader’s Tomb. – London: New English Library, 1977. – 392 p.


<sup>29</sup> Henry O. 100 Selected Stories. – E.: Worldsworth Classics, 1992. – 735 p.

<sup>30</sup> Lewis S. Babbit. – M.: Foreign Lang. Publ. House.1962. – 250 p.

<sup>31</sup> Cronin A. J. Crusader’s Tomb. – London: New English Library, 1977. – 392 p.

<sup>32</sup> Joanne Kathleen Rowling. Harry Potter and the Philosopher’s Stone [Text]. J. K. Rowling. London.: Bloomsbury, 2001.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, “*appearance-qiyofa*” semantikasining asosiy holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma (1-rasm) asosida ifodalashga harakat qilamiz.



**1-rasm. “Appearance–qiyofa” semantikasining yadro–periferiya modeli**

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta’kidlash mumkinki, “*appearance-qiyofa*” konsepti verbalizatorlarining yadrosi til egalari uchun faol assotsiatsiya hosil qiladi, kamroq ahamiyatga ega bo’lganlari esa periferiyadan joy oladi va markazdan uzoqlashgan sari ular (assotsiatsiya)ning ma’nosi ham susayib boradi. Qiyofa konseptning yadrosi sifatida so’zlovchi ongida hosil bo’lgan asosiy tushuncha (tasavvur) tan olinadi. Uning periferiyasini esa yadroning kognitiv xususiyatini baholaydigan va izohlab, talqin qilib bera oladigan maydon hosil qiladi.

Ushbu bobning uchinchi fasli “**O‘zbek tilida “qiyofa” konseptining turli xil konseptual belgilar bilan ifodalanishining semantik xususiyatlari**” deb nomlangan bo’lib, ushbu faslda o‘zbek tilida “qiyofa” leksemasining etimologik kelib chiqishiga e’tibor qaratilgan.

E.Begmatov, A.Madvaliyevlar tahriri ostida chiqarilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zbek tilida “qiyofa” oti o‘z ichiga turli semantik til ma’nolarini olib, ko‘p sonli so‘zlar oilasining semantik markazi hisoblanadi. Bu so‘zning lug‘atdagi ta’rifiga ko‘ra, “qiyofa” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib – tashqi ko‘rinish, yuz, aft, qaddi-qomad; o‘zini tutish degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, ushbu lug‘atning (V-jildi)da ot so‘z turkumiga mansub “qiyofa” so‘zining quyidagi asosiy ma’nolari sanab ko‘rsatiladi:

1. Tashqi ko‘rinish, tus. Masalan: *shahrimiz qiyofasi kundan-kunga o‘zgarmoqda. – Go‘yo ulug‘ bir hodisa sodir bo‘lishi kutilayotganday yeru ko‘k tantanali qiyofa oldi (S.Anorboyev, Oqsoy).*

2. Yuz ifodasi. Masalan: *uning qiyofasidan xursand ekanligi ko‘rinadi. – Negadir, hammaning qiyofasi birdan jiddiy tus olgan.* Anvarning ko‘zlarida hatto qo‘rquv. (H. Ahmar, Kim haq)

3. Kishining ma’naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, ongi, dunyoqarashi, bilim-savyasi va shunga ko‘ra majmui.

Masalan: *kishining ma'naviy qiyofasi*. – *Yoshlarning qilayotgan ishlari ularning qiyofasini belgilab beradi* (Gazetadan).

Berilgan ta'riflarga qo'shimcha tarzda yana bir lug'at ma'lumotlarini qo'shish mumkin. Z.M.Ma'rufovning 1981-yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ot so'z turkumiga kiruvchi mulkning qo'shimcha quyidagi ma'nolarini kuzatamiz:<sup>33</sup>

Kishi yoki narsalarning o'ziga xos xususiyati, mohiyati. Masalan: *keng dehqonlar ommasiga yangi O'zbekiston hokimiyatining haqiqiy qiyofasini ko'rsatish kerak. Ana shunda dushman ig'vosiga uchganlarning ko'zi ochiladi* (I. Sultonov, Burgutning parvozi).

Shunday qilib, lug'atlarda ko'rib chiqilgan "qiyofa" leksik-semantik maydoniga doir misollar tahlili shuni ko'rsatdiki, "qiyofa" konsepti 4 ta semantik modellar yordamida ifodalanishi aniqlandi:

- 1) N yoki Adj (sodda tuzilishga ega bir o'zakli so'zlar);
- 2) N+suffix = Adj (ot yasovchi suffiksli yasama so'z);
- 3) N+suffix= Adv (ot yasovchi suffiksli yasama so'z);
- 4) N+V= V (ot va fe'lli so'z birikma);

Yuqoridagi modellar og'zaki va yozma nutqda reallashadi va aniqlashadi.

Qayd qilish lozimki, o'zbek tilida "qiyofa" konseptining o'ziga xos xususiyati oshkoralik belgisidir; bu qiyofa ko'pincha ma'lum harakatlarni amalga oshirish ko'rinishida isbot talab qiladi va badiiy adabiyotdan olingan misollar bilan tasdiqlanadi. Insonning umumiy qiyofasi borasidagi til materiallaridagi go'zallikka emas, to'g'rirog'i, yoqimlilik va xarizmga ega bo'lishni nazarda tutadi. Insonning tashqi qiyofasini ko'rsatib beruvchi jihati – baland bo'y, baquvvat qaddi-qomat, xipchanlik, o'ta to'liqlik, muskullarning pishiqligi, shuningdek badanning oftobda qoraygan rangi va qat'iyat, viqorlilik, o'ziga ishonch bag'ishlaydigan gavdani mag'rur tutishdir.

O'zbek tilida "qiyofa" konseptini o'rganish jarayonida quyidagi guruhlariga bo'linishini guvohi bo'ldik. Qiyofa konseptining tashqi tuzilishining anatomik xususiyatlari va quyidagi kichik guruhlarni o'z ichiga oladi:

1) Jismoniy xususiyatlar sifatida: *jismoniy, shakl, holat, balandlik*;

2) Tana qismlari sifatida: *teri, bosh: yuz, peshona, qoshlar, ko'zlar (kirpiklar, ko'zqovoqlari, burun (orqa, burun ko'prigi, burun teshigi), og'iz (lablar, tishlar), yonoq suyaklari, iyak (jag'), yonoqlar, teri, quloqlar, sochlari (soch turmagi, kal), yuz sochlari - mo'ylov, soqol, bo'yin, yelka, ko'krak, qorin, orqa, bel, tos, jinsiy a'zolar, qo'llar, barmoqlar, oyoqlar, son, tovon*.

3) Qiyofani tariflash sifatida: *yuz: chiroyli, to'la, qizg'ish, katta ko'zli; peshona: ajinlangan, baland, sochlari cho'zilgan; orqa: tor, ingichka, yig'ilgan va hokazo*.

Yuqoridagi "qiyofa" konseptining strukturasi ko'rish mumkinki, biz ushbu konseptning tilda turli lisoniy vositalar bilan ifodalanishini kuzatdik. Natijada lisoniy birliklar qiyofani ichki va tashqi holati, psixologik qobiliyati, fiziologik ko'rinishi va o'zining tutishi tilda sifat, ravish va ot kabi so'z turkumlari bilan kelib, qiyofani xarakterini ochib berishi ma'lum bo'ldi.

<sup>33</sup> Ma'rufov Z.M. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent.1981. – B. 447-448

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Ingliz va o‘zbek tillarida “appearance-qiyofa” konseptining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari” bo‘lib, bobning birinchi faslida “Ingliz va o‘zbek tillarida “appearance-qiyofa” semantikasiga ega lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari” yoritilgan.

Ingliz va o‘zbek tillarida “appearance–qiyofa” konseptining semantik ma’nolarini aniqlashga va uning kognitiv xususiyatlarini o‘rganishga harakat qildik. Leksemalarning leksik-semantik maydonini o‘rganish jarayonida “appearance-qiyofa” konseptining mantiqiy tushunchalari ham bor. Badiiy matnlarning tahlil qilish natijasida “appearance-qiyofa” konseptini mazmunini tashkil etuvchi metaforik va nometaforik nominatsiyalari o‘rganildi va ular guruhlarga bo‘lib chiqildi.

1. Egalikni ifodalovchi qiyofa:

ingliz tilida: *he had appearance of a country farmer; a gifted writer will also have a charming appearance; I could describe his appearance; I recalled the man’s appearance*;<sup>34</sup>

o‘zbek tilida: *Saidahmad o‘z uy chegarasini xuddi saroy cheragasidek qiyofada o‘rab olgan. (Gazetadan).*

2. Mamlakat, madaniyatni, joyni ifodalovchi qiyofa:

ingliz tilida: *Middle-Eastern appearance; Mediterranean appearance; an-English appearance; foreign appearance*;

o‘zbek tilida: *shahrimiz qiyofasi kundan-kunga o‘zgarmoqda. – Go‘yo ulug‘ bir hodisa sodir bo‘lishi kutilayotganday yeru ko‘k tantanali qiyofa oldi (S.Anorboyev, Oqsoy).*

3. Yoshni ifodalovchi qiyofa:

ingliz tilida: *youthful appearance; old appearance*;

